


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 1 **2025**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 1



TOSHKENT-2025

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-1>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaellovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor  
Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belarusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sul-tonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

<b>1. Аблаева Надира Кадамжановна, Зулунова Комила Комилжоновна</b> РОЛЬ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В РАЗВИТИИ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ.....	8
<b>2. Джуманиязова Интизор Давлатназар кизи</b> О НАЗНАЧЕНИИ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ.....	15
<b>3. Omanboyeva Aziza Doniyor qizi</b> ZUHD TA'LIMOTI VA ZOHIDLIK MAKTABLARI.....	20
<b>4. Yusupova Sohiba Islombek qizi</b> O'ZBEK VA INGLIZ XALQLARI BOLALAR FOLKLORIDA ALLITERATSIYA HODISASINING QO'LLANILISHI.....	24
<b>5. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna</b> ABU ALI IBN SINONING "TIB QONUNLARI" ASARIDA FITONIMLARNING TADQIQ QILINISHI.....	29
<b>6. Аллаярова Рахат Рустамовна</b> К ВОПРОСУ О ПЕРЕВОДЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА НА РУССКИЙ И УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫКИ.....	34
<b>7. Kalandarov Aybek Ruzimbayevich</b> O'ZBEK KLASSIK NASRIY ASARLARNI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDA SINTAKTIK MASALALAR.....	39
<b>8. Якубов Музаффар Камилджанович</b> ДВЕ КУЛЬТУРЫ — ОДНА ЛИЧНОСТЬ: АМИР ТИМУР В АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ.....	43
<b>9. Kutlimuratov Umarjon Shakirovich</b> TILSHUNOSLIKDA IZHONLOVCHI VALENTLIGINI O'RGANISHNING AYRIM MASALALARI.....	47
<b>10. Matchanov Muzaffar Ruzimbaevich</b> MODERN PERSPECTIVES ON COORDINATED ELEMENTS IN ENGLISH.....	51
<b>11. Файзуллоева Зилола Зафаровна</b> ФОРМЫ ВЫРАЖЕНИЯ ИРОНИИ И СПОСОБЫ ЕЁ ПЕРЕВОДА С АНГЛИЙСКОГО НА РУССКИЙ (НА ПРИМЕРЕ НОВЕЛЛЫ О. ГЕНРИ «ФАРАОН И ХОРАЛ»).....	55
<b>12. Qahramonov Aliboy Yolgoshevich</b> ABDULLA QODIRIY: MURAKKAB TAQDIRLI ADIB.....	62
<b>13. Шамсутдинова Галия Шамилевна</b> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, СВЯЗАННЫЕ С АРХИТЕКТУРНЫМИ ПАМЯТНИКАМИ ХОРЕЗМА.....	68

**14. Raimova Nilufar Abdullayevna, Bazarova Nazokat Davronbekovna**  
JONLANTIRISHLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI (KOMIL AVAZNING “SOZANDA”  
ROMANI MISOLIDA).....72

**15. Jumanyazova Muhabbat Xusinovna, Annamuratova Shahnoza Shonazar qizi**  
PARALINGVISTIK VOSITALAR VA ULARNING IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI  
IFODASI.....76

**16. Saparova Mohira Fayzullayevna**  
LEKSIKOGRAFIYANING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....80

**17. Tolibova Maftuna Zokir qizi**  
FITRAT IJODINING ZAMONAVIY ADABIYOT VA JAMIYATGA TA’SIRI.....85

## IQTISODIYOT

**1. Турдиева Якитжан Хайитбаевна**  
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСОВОЙ  
ПОДДЕРЖКИ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....88

**2. Qabulov Baxrom Quzibayevich**  
AUDITORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI..91

## PEDAGOGIKA

**1. Qalandarova Iroda Hamdam qizi**  
DIDACTIC ASPECTS OF DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL  
STUDENTS: AN EXAMPLE OF READING LITERACY.....98

**2. Ashirova Anorgul Ismoilovna**  
DIDAKTIK TIZIMDA BOSHQARISH TAMOYILLARI AHAMIYATI.....105

**3. Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Matkarimova A’loxon**  
MAKTAB O’QUVCHILARIDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI.....110

**4. Sultonova Mashhura Rustamboyevna, Saidova Farog’at Otabek qizi**  
BOLAGA NISBATAN QADRIYATLI MUNOSABAT OTA-ONALIK MUVAFFAQIYATINI  
TA’MINLAYDIGAN OMIL SIFATIDA.....114

**5. Xudayberganov Otabek Erkinovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich**  
OLIY TA’LIMDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FANIDAN MUSTAQIL TA’LIM  
TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....119

**6. Рамазанова Роза Абиловна**  
РОЛЬ И МЕСТО РОДНОГО ЯЗЫКА ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК  
ИНОСТРАННОГО.....126

## PSIXOLOGIYA

**1. Ismoilova Asilpashsha Rojabovna**  
PSIXOLOGIYADA TAFAKKUR MUAMMOSINI O’RGANILGANLIK DARAJASI.....132

**2. Odamova O'g'iljon Kenjayevna**  
SHAXSNI O'Z-O'ZINI KAMOL TOPTIRISH XUSUSIYATI.....137

**3. Карпинский Константин Викторович**  
СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ  
К ДЕТЯМ В БЕЛОРУССКОЙ ПОПУЛЯЦИОННОЙ ВЫБОРКЕ.....141

## TARIX

**1. Salayev Umrbek Kadambayevich**  
JANUBIY OROLBO'YI NEOLIT VA ENEOLIT DAVRI MANZILGOHLARINING  
ARXEOLOGIK JIHATIDAN O'RGANILISHI.....150

**2. Каримов Умрбек Давронбекович**  
НЕМЕЦКИЕ МЕННОНИТЫ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ.....154

**3. Юлдашов Юлдаш**  
ВАЖНОСТЬ ВОПЛОЩЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ.....159

**4. Ismoilov Shohruxmirzo Zakirjon o'g'li**  
X-XI ASRLARDA XORAZMDA HUNARMANDCHILIK, CHORVACHILIK VA  
DENQONCHILIK AHVOLI.....162

**5. Alisher Matyakubov**  
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORAZM VILOYATI: HUDUDIY  
RIVOJLANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....167

**6. Matyakubov Xamdam Xamidjanovich**  
OROLBO'YI SAKLARINING KELIB CHIQISHI MASALASI VA UNING AHAMIYATI.....171


**7. Xamdamova Yulduz Ravshanbek qizi**  
IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI TIKLANISH YILLARIDA XORAZM VILOYATI  
ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATINING BA'ZI MASALALARI.....176

**8. Насиба Хаётова Закировна**  
ВАРАХША ШАҲАР МАДАНИЯТИ: ТАРИХИЙ РИВОЖЛАНИШ ВА МЕЪМОРИЙ  
ХУСУСИЯТЛАР.....180

**9. Eshchanov Hurmat Matnazarovich**  
SHARQIY OROLBO'YI TEKISLIGIDA TEMIR DAVRI TURAR-JOYLARI MUDOFAA  
INSHOOTLARIDA ARXEOLOGIK IZLANISHLAR SAHIFASI.....186

**Qahramonov Aliboy Yolgoshevich-**  
Filologiya fanlari nomzodi,  
ISFT instituti katta o'qituvchisi

### ABDULLA QODIRIY: MURAKKAB TAQDIRLI ADIB

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14956106>

#### ANNOTATSIYA

Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligining yirik vakili, jahon adabiyoti romanchiligida ham o'rni bor yozuvchilardan biridir. Shuning uchun uning ijodini o'rganish hamma zamonlarda ham adabiyotshunoslikning kun tartibida turgan masalalardan biridir. Ushbu maqolada yozuvchining asarlari, bu asarlari to'g'risida o'zbek va jahon adabiyotshunosligida bildirgan fikrlar, maqolalar va kitoblari tadqiq qilinadi. Shuningdek Abdulla Qodiriyning bosib o'tgan hayot va ijod yo'li, uning murakkab taqdiri haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qodiriy, roman, adabiyot, O'tkan kunlar, Mehrobdan chayon, ta'lim, ijod, qatog'on, tuzum, xon, gazeta, yozuvchi, xalq.

---

**Кахрамонов Алибой Ёлгошевич-**  
Кандидат филологических наук,  
старший преподаватель Института ISFT

### АБДУЛЛА КАДЫРИ: ПИСАТЕЛЬ СО СЛОЖНОЙ СУДЬБОЙ

#### АННОТАЦИЯ

Абдулла Кадыри — крупнейший представитель узбекского романизма и один из писателей, занявших также достойное место в мировой литературе. Поэтому изучение его творчества всегда было одним из вопросов повестки дня литературоведения. В статье рассматриваются произведения писателя, его мнения, статьи и книги об этих произведениях в узбекском и мировом литературоведении. В статье также рассматривается жизненный и творческий путь Абдулла Кадыри, его непростая судьба.

**Ключевые слова:** Абдулла Кадыри, роман, литература, «Минувшие дни», «Скорпион из алтаря», образование, творчество, репрессии, режим, хан, газета, писатель, народ.

---

**Qahramonov Aliboy Yolgoshevich-**  
Candidate of Philological Sciences,  
Senior teacher of ISFT Institute

### ABDULLA QODIRIY: A WRITER WITH A COMPLEX FATE

**ABSTRACT**

Abdulla Qodiriy is a major representative of Uzbek novelism, one of the writers who also has a place in world literature. Therefore, studying his work has always been one of the issues on the agenda of literary studies. This article examines the writer's works, the opinions, articles and books expressed about these works in Uzbek and world literary studies. Abdulla Qodiriy's life and creative path, his complex fate are also discussed.

**Key words:** Abdulla Qodiriy, novel, literature, Bygone days, Scorpion from the altar, education, creativity, repression, system, khan, newspaper, writer, people.

**KIRISH VA DOLZARBLIGI**

Zamonaviy o'zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy mana, necha yillarki, xalqimiz qalbidan ardoqlanib kelmoqda. Yozuvchi asarlarining qayta-qayta nashr qilinayotgani, sahnalashtirilib kino lentalariga ko'chirilayotgani adib asarlarining umrboqiyigidan darak beradi.

Abdulla Qodiriy nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti, birinchi navbatda turkiy xalqlar adabiyotida ham katta mavqega ega adiblari sirasiga kiradi. Uning asarlari dunyoning bir necha tillariga o'girilgan va ko'p marotaba nashr etilgan. Yozuvchi ijodini o'rganish masalalari nafaqat o'zbek olimlari balki boshqa xalqlar adabiyotshunosligi tomonidan ham o'rganilayotgani yozuvchi ijodiga bo'lgan

qiziqishning bir ko'rinishidir.

**METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI**

Abdulla Qodiriy ijodini o'rganish yozuvchining hayotlik chog'laridan boshlangan. Ayniqsa, bu ilmiy ishlarda Qodiriy ijodi, jumladan, uning "O'tkan kunlar" romani xolis baholanmadi. Romanga siyosiy ayblar qo'yildi. Yozuvchini oddiy xalq hayotini to'g'ri ko'rsata olmaganlikda ayblandi. Mehnatkash xalq hayotidan uzoq yozuvchi, shuning uchun oddiy kambag'al xalq vakillari emas, o'ziga to'q sinfning vakillari deb hisoblashda davom etdilar. A.Qodiriyga qo'yilgan bu siyosiy ayb ko'p yillar davom etdi va yozuvchini adabiyotdan chetlatilishidan manfaatdor shaxslar ma'lum ma'noda o'z maqsadlariga ham erishdilar. Demak, qodiriyshunoslik o'zbek adabiyotida o'tgan asrning 20-30-yillarda boshlangan edi. S. Xusaynning "O'tkan kunlar haqida" risolasi, O.Sharafiddinov va V.Mahmudovlarning turkum maqolalari, Oybekning "Abdulla Qodiriy ijodiy yo'li" kitobi o'zbek qodiriyshunosligining dastlabki namunalari edi. Garchi, bu tadqiqotlarda Abdulla Qodiriy ijodi, xususan, "O'tkan kunlar" romani bir tomonlama, noxolis baholangan bo'lsada, qodiriyshunoslikning ilk namunalari sifatida ijobiy bahoga munosib desa bo'ladi.

Sho'rolar davrida Abdulla Qodiriy ijodi deyarli o'rganilmadi. Yozuvchi haqida salmoqli asarlar yaratilgani yo'q. Buning sabablari ma'lum edi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin qatog'on qurbonlariga munosabat tubdan o'zgardi, ularning nomlari qayta tiklandi. Ijodini o'rganishga keng yo'l ochildi. A.Qodiriy, Cho'lpon, U.Nosir, A.Fitrat kabi qatog'on qurbonlari ijodi adabiyotga qaytdi. Ular asarlarini yangi mafkura, yangi tuzum siyosati negizini keng ko'lamda o'rganila boshladi. Bir so'z bilan aytganda, qodiriyshunoslikning yangi bosqichi boshlandi. Qodiriyshunoslarning yangi avlodi shakllandi deb bemalol aytishimiz mumkin. I.Sulton, M.Qo'shjonov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Nazarov, I.Mirzayev, A.Aliyev va yana o'nlab Qodiriy ijodi bilan shug'ullanadigan adiblar avlodi yetishdi. M.Qo'shjonovning "Abdulla Qodiriy mahorati", "Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi", "Abdulla Qodiriy risolasi", A.Aliyevning "Ijod va izlanishlar" kitobi, B.Karimning "Abdulla Qodiriy", "Abdulla Qodiriy germeneytikasi" singari kitoblar o'zbek qodiriyshunosligida o'ziga xos o'ringa ega tadqiqotlardir. Shu bilan qardosh xalqlar adabiyotshunosligida ham Abdulla Qodiriy ijodini o'rganish sohasida ham tadqiqotlar mavjud. Bu ishlar ko'proq yozuvchi romanlari adabiy aloqalar aspektida, o'zaro ta'sir yo'nalishida o'rganishadi. Ya'ni Markaziy Osiyo adabiyotlariga, xususan bu adabiyotlarda roman janrining paydo bo'lishida Abdulla Qodiriyning romanlarining ahamiyati yo'nalishida tadqiq qilinadi. Masalan, adabiyotshunos K.Quramboevning Abdulla Qodiriy romanlari Xeder Deryayev romanini solishtirib yaratgan tadqiqoti, turkum maqolalari risolasi Qodiriy ijodini Markaziy Osiyo adabiyotlari bilan solishtirib o'rganishdagi tadqiqotlardan biri desa bo'ladi. Qozoq adabiyotshunosi

R.Berdiyev Turkman adabiyotshunosi X.Abdullayev, A.Murodov, M.Gurbanzahodov qoraqalpoq adabiyotshunosi J.Norimbetov, A. Kojiboyev va boshqa olimlarning tadqiqotlari va maqolalarida Abdulla Qodiriy ijodi haqida e'tiborli fikrlar aytilgan.

Jahon adabiyotida ham Abdulla Qodiriy ijodiga qiziqish katta yozuvchining bir necha romanlari xususan, "O'tkan kunlar" yevropa tillariga tarjima qilingani yozuvchi ijodiga qiziqishni kuchaytirib yuborgani ma'lum. Bir so'z bilan aytganda Abdulla Qodiriy faqat o'zbek kitobxonlarining diqqatinigina emas, qardosh xalqlar, jahon kitobxonlarining e'tibori qozongan so'z san'atkorlaridan biridir.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Abdulla Qodiriy buyuk yozuvchi, katta so'z san'atkori, o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Atoqli so'z san'atkori, o'zbek romanchiligining buyuk asoschisi Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrining Beshyog'och daha, Eshonguzar mahallasida, bog'bon oilasida dunyoga keldi. «Yoshim to'qqiz o'nlariga borgandan so'ng meni maktabga yubordilar», deb yozadilar tarjimai holida. Abdulla Qodiriy dastlabki savodni Zangi ota mahallasidagi mulla Olim domladan olganlar. «Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq hayot kechirgani vajidan o'n ikki yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka beradilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv biladigan odamga muhtoj edi. Shu tama bo'lsa kerak, meni o'ris maktab (rus-tuzem maktab)iga yubordi. Maktabdan qaytib kelgandan so'ngra xo'jayinimning xizmatini qilib yurganim uchun maktabda tegishli iste'fodani ololmadim; ikkin yil mundoq xizmatda yurib chiday olmasdan otanamga yolvorib, uyimga qaytib keldim va o'z uyimdan borib haligi maktabda, o'qib yurdim», – deb yozadi tarjimai holida.

Rus-tuzem maktabi to'rt yil muddatli bo'lib, Abdulla Qodiriy uni 1912-yili muvaffaqiyat bilan tugatadi. Bitirish imtihonida general Samsonov ishtirok etgan va imtihonlarni a'lo darajada topshirgan Abdulla Qodiriy va Akmal Akromovlarga bittadan kumush soat mukofot bergan. Uning rus-tuzem maktabida o'qishi, bolaligidanoq rus tilini puxta egallashi bo'lg'usi yozuvchi ijodiy taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi, rus va jahon adabiyoti, madaniyati bilan bevosita tanishuv uchun yo'l ochib berdi. Abdulla Toshkentdagi Abulqosim madrasasida 1916-1917-yillari ta'lim oladi. Madrasadagi qisqa ta'lim uning islom ilmi, arab va fors tillarini egallashi, keyinchalik bu sohalarni mustaqil o'zlashtirishi uchun zamin hozirladi.

Abdulla Qodiriy arab, fors va rus tillarini yaxshi o'rgangan. Oilasi kambag'allashganligi sababli bolaligidan boshlab mustaqil mehnat qila boshlagan, turli kasblarni egallagan, mahalliy savdogarlarga kotiblik va gumashtalik qilgan

(1907-1915). U 1918-yilda Eski shahar oziq qo'mitasining o'zbekcha sarkotibi, 1919-yilda «Oziq ishlari» gazetasining muharriri, 1920-yilda Kasabalar sho'rosining sarkotibi, 1924-26-yillarda «Mushtum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hay'ati a'zosi kabi ishlarda ishlagan. U matbuot, jurnalistika sohasidagi bilim va malakasini oshirish maqsadida 1924-1925-yillarda Moskvadagi jurnalistika institutida ta'lim oladi.

Abdulla Qodiriyning ilk ijodiy faoliyati 1913-1914-yillarda boshlangan. Dastlab Sadoi Turkiston» gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida «Yangi masjid» sarlavhali xabar bosilgan. Bu xabar ostida «Abdulla Qodiriy» deb imzo chekilgan. Keyinchalik, uning «To'y», «Ahvolimiz», «Millatimga bir qaror!», «Fikr aylag'il» kabi she'rlari «Sadoi Turkiston» gazetasi va «Oyna» jurnalida bosilgan. Abdulla Qodiriy bu she'rlarida millatdoshlarni jaholat va xurofotga qarshi kurashga chaqirib, ma'rifatparvar shoir sifatida maydonga chiqqan. Bu yillarda «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz», «Uloqda», «Jinlar bazmi» kabi qator jiddiy, badiiy jihatdan pishiq asarlarini yaratgan. Uning «Juvonboz», «Uloqda» kabi hikoyalarida o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi. Adibning «Uloqda» hikoyasi avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lib, XX asr boshidagi o'zbek adabiyotidagi realizmning cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.

Abdulla Qodiriy 1919-1925-yillar oralig'ida matbuotda yuzlab maqola hajviyalar yaratdi. Bu asarlarini u har xil – Qodiriy, Julqunboy, Kalvak Mahzum, Toshpo'lat, Ovsar, Dumbul, Shig'oy degan imzo- taxalluslar bilan e'lon etgan. Shu taxalluslardan biri va xalq o'rtasida mashhur

bo'lgani Julqunboydir. Abdulla Qodiriyning yozuvchi sifatida ilk bor elga tanitgan narsa – uning hajviy asarlari, ya'ni «Kalvak Mahzumning xotira daftaridan» va «Toshpo'lat tajang nima deydi?» kabi hajviy qissalaridir. Yozuvchi bu asarlarida odamlar tabiatidagi muayyan salbiy hodislarni sof mafkuraviy nuqtai nazardan turib, nuqul biryoqlama qoralash, fosh etish yo'ldan bormay, xarakter va hodisalarni xolis turib, murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatishicha jazm etdi, – deydi adabiyotshunos olimlar U.Normatov, B.Karimovlar o'z ilmiy maqolalarida.

Abdulla Qodiriy sho'ro hokimiyatining dastlabki yillarida jurnalistik faoliyati bilan bir qatorda ko'plab publitsistik va hajviy asarlar yozdi va o'zbek adabiyotidagi birinchi roman «O'tgan kunlar» ni yaratdi. 1922-yilda «Inqilob» jurnalida romandan dastlabki parchalar e'lon qilingan. So'ngra romanning har bir bo'limi alohida-alohida kitobcha (birinchi bo'limi-1924, ikkinchi bo'limi-1925, uchinchi bo'limi- 1926-yillarda) holida nashr etildi. «O'tgan kunlar» romani xalqimizning XIX asr o'rtalaridagi hayotidan hikoya qiladi. U insonparvarlik, adolatparvarlik, vafodorlik, qahramonlik, zolimlarga va xiyonatchilarga cheksiz nafrat ruhi bilan sug'orilgan. Romanda feodal xon va beklar o'rtasidagi o'zaro urushlar qattiq qoralanadi. Muallif o'sha zamon kishilari ahvoli-ruhiyati, orzu- intilishlari, quvonch va tashvishlarini zo'r mahorat bilan yorqin obrazlar orqali ko'rsatadi. Romanning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'lga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilardir. Jumladan, Otabek o'z ona Vatanini sevadi, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishini istaydi. U xon va beklar o'rtasidagi o'zaro be'mani urushlarni qoralaydi. Otabek reaksiyon urf-odatlar bilan kelisholmaydi, ularga qarshi turadi. U erkin muhabbat tarafdori.

«O'tgan kunlar» romanida adolatli xonlik tarafdagi Yusufbek hoji obrazi

muhim o'rin egallaydi. Yusufbek hoji obrazida tadbirli, insonparvar, adolatparvar kishi, o'z xalqi va o'z yurtining taqdiri uchun qayg'uruvchi, o'z niyatlari puchga chiqqanda ham tushkunlikka berilmagan irodali inson, dono va mehribon ota qiyofasi namoyon bo'ladi.

«O'tgan kunlar» romani mehnatkash xalqqa chuqur hurmat ruhi bilan sug'orilgan. Yozuvchi Hasanali, usta Olim, Saodat, To'ybeka, Oybodoq singari mehnatkash xalq vakillari obrazlarini mehr bilan tasvirlagan. Jumladan, Yusufbek hojining xizmatkori Hasanali uddaburron, tadbirli, sadoqatli, aqlli, g'amxo'r, vijdoni pok, mehribon – umuman oddiy insonga xos eng yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlantirgan kishi obrazi sifatida kitobxon hurmatiga sazovor bo'ladi.

«O'tgan kunlar» romanida xotin-qizlar obrazi salmoqli o'rin egallaydi. Yozuvchi xotin-qizlarning Kumushbibi, Zaynab, O'zbek oyim, Oftob oyim, Saodat, Oybodoq, To'ybeka, Xushro'ybibi, Jannat kampir kabi o'nlab xilma-xil obrazlarini yaratgan. Muallif, ijobiy obrazlarnigina emas, Homid, Xushro'ybibi, Jannat kampir, Musulmonqul, Azizbek, Sodiq kabi salbiy obrazlarni ham zo'r mahorat bilan yaratgan. Xushro'ybibi obrazini olaylik. Kumushbibi vafodorlik, go'zallik va samimiylilikning ramzi bo'lsa, Xushro'ybibi ichi qoralik va shumlik, battollik va yomonlik, behayolik va urushqoqlik, o'jarlik va xudbinlik timsolidir. Xullas, «O'tgan kunlar» romanidagi obrazlarning har biri o'zicha bir olamki, ular hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Ularning hammasi ham yuksak darajada mahorat bilan yaratilgan.

Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asari – o'zbek romanchiligining birinchi cho'qqisidir. Qiziq ma'lumotlardan yana biri, Abdulla Qodiriy sahar tongda “O'tgan kunlar” nomli asarini yozayotib, Kumushning vafoti jarayonida hatto o'zi ham yig'lagan. Adib ikkinchi yirik asari «Mehrobdan chayon» ni 1928-yilning fevralida yozib tugatgan. Ushbu roman 1929-yili Samarqandda bosilib chiqdi. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida Qo'qon xoni Xudoyorxon va uning saroyidagi adolatsizlik, buzuqliklar, xon saroyining fisqu- fasod va fitna uyasi ekanligi ochib tashlangan. Romanning mavzusini yozuvchining o'zi quyidagicha izohlaydi: «Turkiston feodallarining keyingi vakili bo'lg'an Xudoyorning o'z hohishi yo'lida dehqon ommasi va mayda hunarmand-kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo'lmasin, rahmsiz jazo berishi ro'monning mavzi'dir. Xudoyorning bu yo'ldag'i birinchi istinodgohi bo'lg'an ulamolar, ularning ichki-tashqi ahvoli, axloqi, madrasa va oila hayoti ulamoda insoniy his bitkanligi va qolg'ani ham xabosat pardasi ostida sezilmas darajaga yetkanligi mundarija sig'dirg'an qodar bayon qilinadi».

Abdulla Qodiriy 30-yillardagi murakkab sharoitda ham badiiy ijodni davom ettirdi. 1934-yil qishloq hayotidan «Obid ketmon» qissasini yozdi. Qissadagi Obid obrazi o'zbek adabiyotidagi noyob hodisa. Uni o'zbek xalqining mehnat, dehqonchilik, madaniyati bobidagi yetukligi timsoli, deyish mumkin. Yozuvchi inson shaxsiga yondoshishda o'sha davrda odat tusiga kirgan tor «sinfiylik» doirasidan ancha chetga chiqib umuminsoniy qadriyatlarni asrash, ardoqlash yo'lidan boradi. Adib xolis turib kollektivlashtirish harakatining bir qancha tomonlarini haqqoniy ko'rsatadi. Kolxoz tuzumi oxir-oqibatda odamlardagi tashabbusni, shaxsiy egalik, manfaatdorlik tuyg'usini so'ndirish mumkinligini aytadi.

Abdulla Qodiriy asarlar yozish bilan bir qatorda zukko tilshunos, zabardast tarjimon sifatida ham katta ishlar qiladi. Adib tatar fizik olimi Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N.V.Gogolning «Uylanish» asarini (1935), A.P.Chexovning «Buqalamun» (1936) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. N.V.Gogolning «Uylanish» asari tarjimasi o'sha yili Hamza nomli teatr sahnasida o'ynaldi. Qozonda nashr etilgan «To'la ruscha-o'zbekcha lug'at»ni (1934) tuzishda ishtirok etgan. Abdulla Qodiriyning asarlari, jumladan romanlari jahon miqyosida tez tarqaldi. «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» romanlari, rus, ozarbayjon, latish, litva, tatar, turkman, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, arab, italyan, ingliz, nemis, turk va boshqa tillarga tarjima qilinib qayta-qayta nashr etilib kelinmoqda.

Abdulla Qodiriy «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri» kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgan. «Amir Umarxonning kanizi», «Namoz o'g'ri» romanlari uchun materiallar ham yiqqan. Biroq mustabid tuzum adibning bu orzularini ro'yobga chiqarishga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1926-yilda «Mushtum» da bosilgan «Yig'indi gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat hibsga olingan. Bu maqola hajv tariqasida yozilgan bo'lib, unda bir necha kishilar, arbob kimsalar haziltomuz tanqid qilib o'tiladi. Hajvijasidagi tanqidiy mulohazalar uchun «aksilinqilobiy harakat qilganlik» da ayblanib hibsga olingan. Adibning tarixiy romanlari millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yozilganligi ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo'lib chiqdi. Yaratilgan bu romanlar sho'ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot-bot qoralandi. 1930-yillarning o'rtalariga kelib, bu mash'um ulfatlar (kompaniya) avjiga chiqdi. Adib 1937-yilning 31-dekabr kuni kechqurun hibsga olindi. 9 oylik qamoqdagi so'roq-tergov, qiynoq tahqir, xo'rlikdan so'ng 1938-yil 4-oktyabrda Cho'lpon, Fitrat kabi adiblar bilan birga qatl etildi. Qodiriy hibsga olingach, oilasini ta'qib etish boshlandi. Hovli-joyi tortib olindi. U yaratgan asarlar zararli sanalib, mahv etildi, o'tda yoqildi, kutubxonalardan yo'qotildi, ularni o'qish taqiqlandi. Bunday ta'qibu tahqirlar yigirma yil davom etdi. Nihoyat sobiq partiyaning XX s'ezdida shaxsiga sig'inish qoralanib, uning oqibatlarini tugatishga kirishilgach, totalitar tuzumning aybsiz aybdorlari, qurbonlari qatori Abdulla Qodiriy ham oqlandi. 1958-yildan boshlab uning qutlug' nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi.

Abdulla Qodiriy oqlangandan keyin u haqida va asarlari haqida qator tadqiqotlar va risolalar yaratildi. Jumladan: M.Qo'shjonovning «Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati» (1966), «Qodiriy – erksizlik qurboni» (1992), «O'zbekning o'zligi» (Qodiriyga armug'on) (1994), A.Alievning «Abdulla Qodiriy» (Adabiy tanqidiy ocherk) (1967), F.Nasriddinovning «Adibning yo'li» (1971), «Mahorat jilolari» (Abdulla Qodiriy ijodiyoti) (1974), M.Sultonovning «Yozuvchi uslubiga doir» (1973), I.Mirzaevning «Abdulla Qodiriy» (1975), O.Sobirovning «Sarchashma adib ijodida» (1975), «Abdulla Qodiriyning ijodiy evolyutsiyasi» (1977), Habibulla Qodiriyning «Otam haqida» (1974 –1983), Murodxon Abdug'afforning «Iste'dod jozibasi» (Abdulla Qodiriy hikoyalari badiiyati va ularning qiyosiy tahlili) (1992), U.Normatovning «Qodiriy bog'i» (Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida) (1995), «O'tgan kunlar» hayrati (1996), X.Lutfiddinovning «Gullarning ra'nosi» (1997), Bahodir Karimning «Qodiriy qadri» (2003), S.Mirvalievning «Abdulla Qodiriy» (hayoti va ijodi) (2004) kabi risolalar yaratildi.

Adibning hayoti, ijodiga bag'ishlab hujjatli film, asarlaridan kino va pesalar yaratildi va yaratilmoqda. Jumladan, «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi romanlari bo'yicha badiiy film va videofilmlar ishlandi va teatr sahnalarida qo'yildi. Marhum Habibulla Qodiriyning otasi haqida yozib qoldirgan xotiralari asosida «Xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir» hujjatli filmi tayyorlandi.

Filmning ssenariysi adibning nevarasi Sherxon Qodiriy qalamiga mansub, rejissyor Sh.Bizzatov uni ekranga olib chiqqan.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil mustaqilligi e‘lon qilgandan so‘nggina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatila boshlandi. Abdulla Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti

(1991), Vatanimizning eng yuksak mukofoti – «Mustaqillik» ordeni birinchi bo‘lib Abdulla Qodiriyga berildi (1994), Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti – O‘zbekiston Respublikasining badiiy ijod sohasidagi ilk oliy mukofoti, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1991-yil 6-fevralda ta‘sis etildi. Bu mukofot adabiyot, san‘at va me‘morchilik sohasida yaratilgan, milliy istiqloq g‘oyalarini yorqin badiiy shakllarda aks ettirgan, O‘zbekistonning buyuk tarixini va hozirgi yuksalish jarayonlarini haqqoniy obrazlar orqali gavdalantirgan va keng jamoatchilik tomonidan tan olingan yetuk asarlar uchun beriladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Davlat San‘at va Madaniyat instituti, Jizzax Davlat pedagogika instituti, Xalq merosi nashriyoti, Navoiy viloyati universal ilmiy kutubxonasi, metro bekati, istirohat bog‘lari, maktab va ko‘chalar, mahallalarga uning nomi berilgan. Abdulla Qodiriy qoldirgan ma‘naviy meros – uning nodir asarlari mangulikka dahldordir. Ko‘rdikki, Abdulla Qodiriy betakror so‘z san‘atkori. Bunday adiblar ijodini o‘rganish olimlarning muqaddas vazifalaridan biri bo‘lsa, asarlarini o‘qish, ulardan ma‘naviy ozuqa olib, komillikka intilish har bir inson, ayniqsa, yoshlar uchun ham qarz ham farzdir.

#### XULOSA

Mashhur sharqshunos olim bir vaqtlari dunyoda beshta romanchilik maktabi bor edi. Endi Abdulla Qodiriy oltinchi romanchilik maktabini yaratdi deb yozgan. Bu yozuvchiga, uning romanchilik mahoratiga berilgan yuksak baho, yozuvchining jahon darajasida e‘tirof etilganligining bir belgisidir. Abdulla Qodiriy mana shunday salohiyatga ega so‘z san‘atkorlaridan biri edi. Bu adabiyotning emas. Hatto jahonning bir necha nuqtalarida tan olingan yozuvchilardan biri edi.

Adabiy faoliyati davomida maktab yaratish hamma ijodkorga ham nasib etavermaydi. Bunda chinakam iste‘dod, boshqalarga ham saboq bo‘la oladigan saboq namunasi, yozuvchilik tajribasi bo‘lishi kerak. Bu masalada o‘zbek adabiyotda Abdulla Qodiriyga teng keladigan yozuvchi juda kam, yoki, umuman yo‘q desak, bizningcha bu ham haqiqatdir.

#### Сноски / Iqtiboslar/ References

1. A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar”. Toshkent, G‘.Gulom nashr., 1992 yil.
2. B. Karimov. «Adabiyot, badiiyat, abadiyat». T.: Xotiralar, badialar, maqolalar. 2004.
3. Habibulla Qodiriy. Xotiralar. G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1974-yil.
4. B.Nazarov. «O‘zbek sovet adabiy tanqidi tarixi». T.: «Fan ». 1987.
5. B.Nazarov, A.Rasulov, Sh. Ahmedova, Q.Qahramonov. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. Toshkent “Tafakkur qanoti”. 2012-yil.
6. Matyoqub Qo‘shjonov. Abdulla Qodiriyning tasvirlash san‘ati (“O‘tgan Kunlar” romani misolida). O‘zbekiston “Fan” nashriyoti. T.: 1966.
7. B.Karimov. «Qodiriy qadri». – T.: 2003.
8. A.Rasulov. «Tanqid, tahlil, baholash». T.: «Fan» nashriyoti, 2006.
9. S.Mirvaliev. «Abdulla Qodiriy». «Fan» nashriyoti. – T.: 1992
10. B.Karimov. «Abdulla Qodiriy». –T.: «Fan». 2006.

tomonidan qoldirilgan turar-joylar mudofaa inshootlarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijalari taxlil qilindi va yangi g'oyalar ilgari surildi.

Natijalar quyidagicha izohlandi:

- Sharqiy Orolbo'yi hududi tekisligini odamzot tomonidan neolit davrida o'zlashtirilishi, axoli zichligi oshganligi sabab olib borgan migratsion jarayonlar, yangi-yangi xo'jalik-madaniy xo'jaliklarni tarkib topishi oydinlashtirildi.

- Neolit va bronza davri aholisini jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-munosabatlarni olib borishi jarayonida Quyi Amudaryo xududida Oqchadaryo havzasi axolisi bilan o'zaro aloqalari natijalari qayd qilindi.

- Yarim o'troq va chorvador qabilalarning binokorlik bilimi asosida bunyod qilingan istexkomli turar-joylar to'g'risida tarixiy ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi.

#### **XULOSA**

- Arxeologik yodgorliklarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari e'tiborga olinib, Sharqiy Sirdaryo xududi tosh davrida ovchilar tomonidan o'zlashtirilmagan, neolit davri so'nggi bosqichida o'zlashtirilganligi to'g'risida xulosaga kelindi.

- Neolit, eneolit va bronza davrida axoli turar-joylar yerto'la chaylalar bo'lgan, o'zlashtiruvchi xo'jalik yo'nalishi jamiyat iqtisodiyotini namoyon qilgan.

- Temir davriga kelganda (mil.avv. X-Vasrlar), turar-joylar qurilishida paxsa va xom g'ishtlar qo'llanishi, ular atrofi mudofaa devor, unda mudofaa elementlari, tashqi devor atrofida handaq o'tganligi masalalari o'rganildi.

#### **Iqtiboslar / References / Сноски**

1. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма-М.:Наука, 1968. Вып-8-С.125-126.
2. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья //ТрХАЭЭ-М.:Наука, 1981-Вып XIII-С.90-93.
3. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья-М.:Наука, 1977.Т.-Х-С 27-28.
4. Толстов С.П. Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция АН СССР в 1946 г //Известия Академии Наук-М.:Наука, 1947.Т.4. Вып-2-С. 177-182.
5. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М-Л, Наука, 1962-С. 154-рис 89.
6. Толстов С.П. "Древний Хорезм". М. МГУ. 1948. С. 59-69.
7. Сагдуллаев А.С. "Оседлые области юга Средней Азии в эпоху раннего железа". (Генезис культуры и социально-экономическая динамика). Автореф. Дисс. Доктор. Ист.наук.-М.:МГУ, 1989-38 с
8. Пилишко В.Н. "Раскопки в Дейнауском районе Чарджоуской области". //АО 1974,- М: Наука, 1975-С.528.
9. Kabirov J, Sadullayev A. "O'rta Osiyo arxeologiyasi". Т. O'qituvchi. 1990.
10. Baratov P. "O'zbekistonning tabiiy geografiyasi". Toshkent. O'qituvchi, 1996-В. 154-162.

## МАДАНИЯТЛАР КЎПРИГИ ВА АКАДЕМИК ҲАМКОРЛИК НАМУНАСИ: МАЪМУН УНИВЕРСИТЕТИ ФИЛОЛОГИЯ ФАКУЛТЕТИ ВА КИНЖО ГАКУИН УНИВЕРСИТЕТИ



Бугунги кунда Маъмун университети республикаимиз етакчи олий даргохларидан биридир. Университет мамлакатимиздаги олий ўқув юртлари орасида халқаро ҳамкорлик бўйича етакчи ўринни эгалламоқда. Таълим соҳасидаги халқаро ҳамкорлик университет жамоаси фаолиятининг ажралмас қисмидир. Маъмун университети жаҳоннинг бир қатор йирик давлатлари жумладан, Словения, Италия, Белгия, Швеция, Испания, Япония, Малайзия, Туркия, Қозоғистон, Қирғизистон, Беларус, Россия, Озарбайжон, Жанубий Корея каби давлатларнинг олий ўқув юртлари билан ўзаро ҳамкорлик алоқаларини ўрнатди ва ушбу олий ўқув юртларида университет бакалаврият талабалари, таянч докторантлари, профессор-ўқитувчиларини ўқиш, малака ошириш, тажриба алмашиш, илмий тадқиқот ишларини амалга ошириш, шунингдек, халқаро илмий конференциялар, семинарлар, форумларда иштирок этишларини режалаштирди. Нуфузли хорижий олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари ҳозирги кунда талабаларга таълим бериб келмоқдалар.

Маъмун университети “Филология” факултети 2022 йил 5 сентябрда ташкил қилинди. Ҳозирги кунда филология факультетида 1000дан зиёд талаба тахсил олмақда. Улар орасида халқаро ва миллий сертификатга эга талабалар ҳам бор, улар асосан университет тасисчиси гранти асосида тахсил оладилар. Бу ҳам университет раҳбариятининг иқтидорли ва билимли талабаларга кўрсатаётган эътибор ва эъзоздир!

Филология факултети доимо тил, адабиёт ва маданиятни ўрганиш маданиятлараро мулоқотни йўлга қўйишда асосий ўрин тутадиган макон бўлиб келган ва шундай бўлиб қолади. Глобаллашув даврида хорижий университетлар билан ҳамкорлик академик фаолиятнинг ажралмас қисмига айланиб, ўзаро тажриба алмашиш, илмий тадқиқотларни чуқурлаштириш ва халқлар ўртасида ўзаро тушунишни ривожлантириш имконини бермоқда.



Филология соҳасидаги халқаро ҳамкорлик алоҳида аҳамиятга эга, чунки улар тилни маданий ва тарихий шароитда ўрганиш учун янги имкониятлар очади. Сўнги бир неча йил ичида факултетимиз турли мамлакатлар, жумладан, Япония, АҚШ, Жанубий Корея ва бошқа университетлар билан алоқаларни фаол ривожлантирмоқда. Бу ҳамкорликлар таълим жараёнини бойитади, илмий тадқиқот чегараларини кенгайтиради ҳамда талабалар ва профессор-ўқитувчиларнинг алмашинув дастурлари, конференциялар ва кўшма илмий лойиҳаларда иштирок этиши учун имконият яратади.

Япониянинг Кинжо Гакуин университети ва Маъмун университети билан тегишли меморандумлар билан мустаҳкамланган ҳамкорлик ана шундай ҳамкорликнинг ёрқин мисолларидан бирidir. Бу ташаббуслар халқаро алоқаларни мустаҳкамлаш ва жаҳон илмий ҳамжамиятига интеграцияни рағбатлантиришга содиқлигимизни кўрсатади.

Кинжо Гакуин университети Япониянинг Аичи префектураси, Нагоя шаҳрида жойлашган хусусий аёллар университетидир. Унинг кампуси Морияма-ку худудида жойлашган бўлиб, талабаларга турли академик ва маданий ресурслардан фойдаланиш имкониятини беради.

Мазкур даргоҳ 1889 йилда ташкил этилган ва 1949 йилда университет мақомини олган. "Кинжо" ("Олтин қалъа") номи асосий кўрғоннинг тепасидаги иккита олтин шачиҳоко билан машҳур бўлган Нагоя қалъасининг тарихий номига ишора қилади.

Университет гуманитар ва ижтимоий фанлардан тортиб табиий фанларгача бўлган кенг кўламли фанларни қамраб олувчи 14 та бакалаврият факултети ва мутахассисликларини ўз ичига олади. Магистратура ва докторантура дастурларини таклиф қилувчи Гуманитар фанлар ва инсон экологияси олий мактаби ҳам мавжуд.

Университет кутубхонаси ўқув муҳитининг муҳим қисми бўлиб, уй вазифаси, тадқиқот ва ўқиш учун имконият яратади. Университет нафақат маҳаллий, балки халқаро талабаларни ҳам қабул қилади, маданий алмашинув учун ўзига хос муҳит яратади, турли миллат вакиллари билан учрашади ва халқаро алоқаларни ўрнатади.

Маъмун университети Филология факултети ва Кинжо Гакуин университети Гуманитар фанлар факултети ўртасида ўзаро англашув меморандуми имзоланиши орқали мустаҳкам алоқалар ўрнатилди. Мазкур ҳужжат академик алмашинувни ривожлантириш, қўшма таълим ва илмий лойиҳаларни амалга ошириш йўлида муҳим қадам бўлди.



Меморандум ҳамкорликнинг қуйидаги асосий йўналишларини ўз ичига олади:

Касбий ҳамкорликни чуқурлаштириш ва тажриба алмашиш учун ўқитувчилар ва тадқиқотчилар алмашинуви;

ёш мутахассисларнинг дунёқарашини кенгайтириш ва икки давлат таълим тизимининг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш имконини берувчи бакалаврият талабалари алмашинуви;

маданий ва илмий меросни чуқурроқ тушунишга қўмаклашиш учун академик маълумотлар ва материалларни алмашиш;

илмий иш учун янги истиқболларни очадиган қўшма тадқиқот лойиҳалари ва симпозиумлар ташкил этиш;

муайян эҳтиёж ва имкониятларга қараб факултетлар томонидан келишилган бошқа ҳамкорлик шакллари.

Шартнома ўзаро ва ҳар бир университетнинг автономиясини ҳурмат қилиш тамойилларига асосланади. Режалаштирилган барча тадбирлар иккала факультет вакиллари томонидан олдиндан келишиб олинади ва томонларнинг илмий ва молиявий имкониятлари ҳисобга олинади. Меморандум беш йил муддатга амал қилади, шу каби муддатлар учун автоматик равишда янгиланади.


Ҳамкорлик доирасида илгари сурилган энг истиқболли ғоялардан бири ҳар икки университет талабалари учун ҳар йили қишки ва ёзги икки ҳафталик оромгоҳларни ташкил этиш таклифи бўлди. Ушбу тадбирлар қуйидагиларга қаратилган:

Икки давлат маданияти, ҳаёти ва тарихи билан танишиш;

маданиятлараро алоқаларни мустаҳкамлаш;

амалий мулоқот орқали иштирокчиларнинг тил малакаларини ошириш.

Бундай оромгоҳлар талабалар учун нафақат билимларини чуқурлаштириш, балки бошқа давлат вакиллари билан дўстона алоқаларни ўрнатиш имкониятини берувчи ўзига хос майдонга айланади.



Мамун университети ва Кинжо Гакуин университети ўртасидаги ҳамкорлик замонавий таълим соҳасида халқаро ҳамкорлик муҳимлигини кўрсатади. Бу нафақат иштирокчиларнинг касбий маҳоратини оширишга, балки Ўзбекистон ва Япония халқлари ўртасидаги дўстлик ва ўзаро ҳамжихатликни мустаҳкамлашга хизмат қилади. Ҳамкорликнинг янада кенгайтиши ҳар икки томон учун янада кенг имкониятлар яратиши кутилмоқда.

Бу тadbирларни амалга оширишда бевосита иштироқ этган ва асосий сабабчи бўлган ҳақиқий ва ёрқин инсонни эслатишимиз керак! Маъмур университети ва Япониянинг Кинжо Гакуин университети ўртасида ҳамкорлик алоқаларини ўрнатишда яхши дипломат ва тadbиркор Ибрагимов Бунёдбек Абдушарипович муҳим рол ўйнади, унинг фаолияти Ўзбекистон ва Япония ўртасида муҳим кўприк вазифасини бажариб келмоқда. Ўзбекистон Республикасининг Нагойядаги фахрий консули Хироюки Ито жанобларига қимматли вақтларини аямасдан ва беминнат хиссаларини кўшганлари учун алоҳида миннатдорчилик билдираимиз.

Бунёдбек Абдушарипович 1985-йилда Урганч шаҳрида туғилган, юридик маълумотга эга, 2007-йилда Тошкент давлат юридик институтини, 2009-йилда Нагоя университетини тамомлаган, ҳуқуқшунослик магистри даражасини олган. Унинг фаолияти халқаро ҳамкорлик, ўзбек маданиятини тарғиб қилиш ва икки давлат ўртасидаги иқтисодий алоқаларни ривожлантириш борасидаги фаол ишлар билан ажралиб туради.

2017 йилдан Б.Ибрагимов Нагоя-Ўзбекистон дўстлик жамияти (ФАНУЗ) ҳаммуассиси ва ижрочи директори, Нагоя шаҳрида жойлашган Глобал Силк Роад Инс. компанияси муассиси ва ижрочи директори. Унинг ташаббуслари билан қатор муҳим шартномалар, жумладан, Туризм давлат қўмитаси ҳузуридаги Миллий жамоат маркази билан ҳамкорлик тўғрисидаги меморандум ҳамда Тошкент ва Нагоя шаҳарлари ўртасида маданият ва туризм соҳасида ҳамкорлик тўғрисидаги шартнома имзоланган.

Ўзбекистоннинг сайёҳлик салоҳиятини оммалаштириш, миллий маҳсулотларни Япония бозорига олиб чиқиш, япон сармоясини жалб этиш борасидаги саъй-ҳаракатлари икки томонлама муносабатлар ривожига катта таъсир кўрсатган. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Япониядаги ватандошлар билан учрашувини ташкил этиш, Нагоя мэрининг Ўзбекистонга ташрифи, маданий-иқтисодий алмашинувни ривожлантиришга хизмат қилувчи лойиҳаларни амалга ошириш унинг ютуқларидандир.

Халқаро алоқаларни мустаҳкамлашга қўшган ҳиссаси учун Бунёдбек Абдушарипович “Шухрат” медали (2020) ва “Фаол тадбиркор” кўкрак нишони (2024) билан тақдирланган. Унинг фаолияти нафақат Ўзбекистонни халқаро майдонда танитибгина қолмай, балки таълим, фан ва маданият соҳасидаги ҳамкорлик, жумладан, Кинжо Гакуин университети билан ҳамкорлик қилиш учун ноёб имкониятлар яратди.

Филология факултетининг Япониянинг Кинжо Гакуин университети каби хорижий университетлар билан ҳамкорлиги - халқаро ҳамкорлик илм-фан, таълим ва маданият ривожига қандай ҳисса қўшишининг ёрқин намунасидир. Бу каби ташаббуслар талабалар ва профессор-ўқитувчилар учун янги уфқларни очиб, тажриба алмашиш, тадқиқотларни кенгайтириш ва маданиятлараро тушунишни чуқурлаштиришга ёрдам беради.

Бу жараёнда Бунёдбек Абдушарипович Иброҳимов каби фаол меҳнати ва фидойилиги билан мамлакатлар ўртасидаги дўстлик кўприқларини мустаҳкамлаган инсонларнинг саъй-ҳаракатлари алоҳида аҳамият касб этади. Унинг ҳиссаси узоқ муддатли ҳамкорликни ривожлантириш йўлидаги муҳим қадам бўлиб, натижада нафақат қўшма лойиҳалар, балки таълим ва маданият алмашинувининг янги истиқболларини шакллантиришга эришилди.

Ишончимиз комилки, Кинжо Гакуин ва бошқа хорижий университетлар билан ҳамкорлик янада ривожланиб, янги самаралар олиб, факултетимизнинг халқаро нуфузини мустаҳкамлайди. Бу ташаббуслар таълим ва илм-фан халқларни бирлаштириб, умумий мақсадларга эришиш ва глобал билимлар ҳамжамиятини яратишда қудратли воситага айланаётганидан далолат беради.

**Якубов Музаффар Камилджанович-  
Маъмур университетининг Филология факультетининг декани**



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000